



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksonometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 821.512.133

ANALITIK TAFAKKUR – TALABALARDA FIKRLASH DINAMIKASI VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNING ASOSIY KOGNITIV OMILI SIFATIDA

Hasanov Sharobiddin A'zamovich

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada filolog talabalarda analitik tafakkurni shakllantirish orqali mutaxassislikka tayyorlash; ularda analitik fikrlash, o'z nuqtai nazariga egalik, sog'lom va sobit e'tiqod singari sifatlarni qaror topdirish; o'zini anglash, o'ziga ishonch, o'z ustida ishlash, erkinlik va javobgarlik, o'z imkoniyatlaridan foydalana bilish sifatlarini rivojlantirish kabi kasbiy kompetentligini yuksaltirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar:

analitika, intellektual, tendensiya, axborotni belgilash, atroflicha o'rganish; axborotni muayyan qismlarga ajratish, ma'lumotlarni taqqoslash, axborotni xolis baholash.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются вопросы подготовки студентов-филологов к профессиональной деятельности посредством формирования аналитического мышления; становления у них таких качеств, как аналитический склад ума, наличие собственной позиции, здоровые и твёрдые убеждения; а также развития профессиональной компетентности путём воспитания самосознания, уверенности в себе, способности к саморазвитию, чувства свободы и ответственности, умения максимально использовать собственный потенциал.

Ключевые слова:

аналитика, интеллектуальный, тенденция, идентификация информации, всестороннее изучение, разделение информации на компоненты, сравнение данных, объективная оценка информации.

Abstract.

This article discusses the professional training of philology students through the development of analytical thinking; the cultivation of such qualities as analytical mindset, having one's own standpoint, and sound and firm convictions; as well as the enhancement of professional competence by fostering self-awareness, self-confidence, capacity for self-improvement, a sense of freedom and responsibility, and the ability to make effective use of one's own potential.

Keywords:

analytics, intellectual, tendency, information identification, comprehensive examination, decomposition of information into components, data comparison, objective evaluation of information, logical thinking.

Mamlakatimiz oliy ta'limi oldida bo'lajak mutaxassislarning professional tayyorgarligi va intellektual saviyasini xalqaro tendensiyalarga muvofiqlashtirish vazifasi turibdi. Bunday darajaga esa faqat talabalarni analitik tafakkur qilishga o'rgatish orqaligina erishiladi. Jumladan, filolog olim yoki filolog pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasini ko'tarishning asosi unda analitik tafakkur layoqatini shakllantirishdadir. Analitik tafakkur qila biladigan shaxsgina kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis bo'la oladi. Chunki bunday filolog badiiy asarni shunchaki qabul qilmaydi, balki uning asl qimmatini, tarbiyaviy ahamiyati, millat estetik

didini shakllantirishdagi o'rni, milliy va jahon adabiyoti rivojiga ta'siri, eng muhimi, bu badiiy asarning yosh avlod ma'naviyatida ezgu sifatlar tarkib toptirish imkoniyati qandayligini bexato ko'ra biladi, adbiyot darslariga tafakkuriy ruh bera oladi.

Hayot sur'atining tezligi, o'zgarishlarning tinimsizligi, axborot oqimining to'xtovsiz va bepoyonligi bugunning odamidan qamrovli fikrlashni talab qiladi. Hayotdagi har qanday muammoga turli nuqtai nazardan qaray bilmaydigan kishi zamon shiddatiga, tobora kuchayib borayotgan raqobatga bardosh bera olmaydi. Chunonchi, fikrlash mustaqil fikrlashdan, analitik tafakkur esa tafakkurning barcha boshqa ko'rinishlaridan farq qilishi ilmiy asoslanib borilmoqda. Tafakkur ko'rinishlari orasida shaxs eruditsiyasi va intellektini oshirish borasida samaradorligi bilan alohida ajralib turuvchi turi – analitik tafakkur hisoblanadi. Chunki analitik tafakkur o'rganilayotgan ob'ektga turli tarafdin yondashish, uning ichki va tashqi aloqalarini kompleks holda tekshirish va to'xtamga kelishni taqozo etadi. Qadim zamonlardan bunday tafakkur egalari alohida qadrlanganlar. Bunday fikrlay oladigan shaxslar antik Yunonistonda analitiklar deb nomlanganlar. Shundan beri fikrlashning o'ziga xos murakkab turi – analitika nomi bilan yuritib kelinadi.

Fikrlash jarayoni hammada har xil kechgani va turli natija bergani singari yondashuv yo'sini, qamrovi, uslubi, ob'ektga munosabatiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Tafakkur ob'ektiga yondashuv yo'siniga qarab fikrlashning deduktiv, induktiv, ijodiy, pragmatik singari bir qacha turlarga ajratish mumkin. Deduktiv tafakkurda umumiy tayanib xususiy hodisa haqida to'xtamga kelinsa, induktiv fikrlashda xususiy hodisalarga asoslanib, umum to'g'risida xulosa chiqariladi. Ijodiy fikrlashda esa mantiqiy tafakkur, solishtirish, sabab-oqibatni aniqlashdan ko'ra tasavvur va xayolga suyanish etakchilik qiladi. Pragmatik fikrlashda jarayonni o'ylovchining manfaati boshqaradi. Shuningdek, fikr yuritish uslubiga qarab fikrlash jarayonini mantiqiy va analitik tarzida ham tasniflash mumkin. Mantiqiy tafakkur qilishda fikr ob'ektiga izchillik, sabab va oqibat nuqtai nazaridan yondashish ko'zda tutiladi. Analitik tafakkur ham mantiqiy fikrlashga juda o'xshab ketadi. Hatto mantiqiy tafakkurga xos jihatlarni qamrab oladi ham. Lekin fikrlashning bu yo'sinida tafakkur sur'atining tezligi, masalaga turli tomonda yondasha bilish, qamrovdorlik, muammoga eng muvofiq va samarali echim topish singari jihatlari ustuvorlik qiladi.

Analitik tafakkur egasida masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab-oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyati bo'ladi. Shu bois bunday fikrlaydigan odamlar olam hodisalari va odamning hatti-harakatlari yuzasidan xolis, atroflicha va haqqoniy xulosa chiqara biladilar. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o'rganish va tizimga solish, olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri to'xtamga kelish imkonini beradi. Analitik tafakkur yuritishda: a) axborotni belgilash, atroflicha o'rganish; b) axborotni muayyan qismlarga ajratish; v) ma'lumotlarni taqqoslab ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish; g) axborotni xolis baholash; d) mantiqiy fikrlash; e) fikrni izchillik bilan to'g'ri bayon etish; yo) fikrlayotganda faqat dalillarga tayanish; j) axborotlarning muhimini nomuhimidan ajrata bilish; z) mavjud axborotga tanqidiy qaray bilish; i) muqobil echimlar bo'lishi mumkinligini hisobga olish; y) xulosa chiqarish kabi fikriy operatsiyalar bajariladi.

“Falsafa. Qomusiy lug'at”da “analitika” atamasi haqida: “Analitika – tahlil qilish san'ati muhokama, isbotlash xarakteriga ega bo'lish uchun tushuncha va elementar tamoyillarni ajratish san'ati. Analitika mantiq fanining bo'limi hisoblanadi. Aristotel “Topika” va “Ikkinchi

analitika” asarlarida analitikani qat’iy, isbotlangan muhokama sifatida ta’riflaydi” [3;25-b.], – deb izoh berilgan.

Analitik tafakkur yuritish qobiliyatini quyidagi zakovotni o’stiruvchi mashg’ulotlar bilan muntazam shug’ullanish orqali qaror toptirish mumkin: detektiv, fantaziya, falsafiy kitoblar mutolaasi; mantiqiy jumboqlarni echish; krossvord, skanvord, rebus kabi boshqotirmalar ustida ishlash; shaxmat o’yini bilan shug’ullanish; kundalik axborotlarni, voqea-hodisalarni tahlil qilib borish; har kuni yangi bir narsani bilib olishga intilish; turli intellektual bahs-munozaralarda qatnashish; atrof-olam haqida tafakkur yuritish; fikrlash xaritasini yaratish; fikr va xulosalarni yozib borish; fikr-xulosalarning muqobil variantlarini yaratish; muammoli vaziyatlarni modellashtirish va hal etish.

E’tibor berilsa, analitik tafakkurni shakllantirish uchun tavsiya etilayotgan mashg’ulotlar talabaning o’qish jarayoniga halaqit bermaydi, aksinsa, eruditsiyasini oshiradi, tafakkurini charxlaydi. Bunday qiziqarli mashg’ulotlarni fanlar mazmuniga singdirish, amaliy qo’llash ijobiy natija beradi. Bunda fanlararo aloqadorlik, hamkorlik muhim rol o’ynaydi. Qachonki barcha fanlarni o’qitishda talabalarning mustaqil, tanqidiy, analitik tafakkurini shakllantirishga, rivojlantirishga tizimli yondashilmas ekan, kutilgan natijaga erishish mushkil bo’lib qolaveradi.

Analitik tafakkurga ega bo’lish, umuman, pedagogik amaliyotda, xususan, adabiyot o’qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy asardagi so’zni, tasvirni, ifodani har bir respient o’zicha qabul qiladi, o’zicha ta’sirlanadi va o’zicha tushunadi. Bir sub’ekt, ya’ni yozuvchining ob’ektiv olam haqidagi sub’ektiv qarashlari ifodasi bo’lmish asarni sub’ektiv qabul qiladigan kitobxon fikrlarida imkon boricha ob’ektiv xolislik, asoslanganlik, isbotlanganlik bo’lishi uning aqliy, axloqiy rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega. O’quvchilarning fikrlarida xolislik, asoslanganlik bo’lishiga erishishda ularni analitik tafakkurga o’rgatish katta o’rin tutadi. O’quvchi yoshlarda ana shunday tafakkur qobiliyatini tarkib toptirish kerak bo’lgan filolog o’qituvchilarning o’zida analitik tafakkurni shakllantirish yo’llarini tadqiq etish shu sabali ham o’ta dolzarb ilmiy-pedagogik muammodir.

Analitik tafakkur – tahliliy fikr yuritish san’ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o’rganish jarayonida u haqda atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to’xtamga kelish qobiliyatidir. Analitik tafakkur egasi tahlil qilinayotgan ob’ekttni har tomonlama sinchiklab o’rganadi: murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi – har bir so’z, jumla, detal, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o’zaro mantiqiy bog’laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Analitik qobiliyat egasi har qanday hodisa ustida fikr yuritganda narsa-hodisaning tashqi ma’nosini uqish bilangina cheklanmay, uning ichki – botiniy ma’no qatlamlarini ham aniqlashga urinadi. Natijada tahlil etilayotgan ob’ekt yuzasidan atroflicha tushuncha yuzaga keladi. Analitik tafakkur muammo yoki masalaning oson va tez, to’g’ri va aniq hal etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Yuqorida berilgan ta’riflar, munosabatlarni umushlashtirib, analitik tafakkur tushunchasi belgilarini quyidagicha izohlash mumkin bo’ladi: analitik tafakkur fikrlashning mantiq bilan qat’iy bog’langan, predmetni aniq, to’g’ri, ob’ektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turi, ta’lim jarayonida bilimlarni o’zlashtirishning mustahkam asosi; analitik tafakkur – ijtimoiy hayotining hamma sohalari bo’yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o’tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo’llarini belgilash imkonini beradigan sermahsul fikrlash yo’sini, ta’lim tizimida uzviylik, izchillikni ta’minlashning muhim manbai; analitik tafakkur insonni innovatsion

g'oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzidir.

Yurtimizda oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lish uchun tahsil olayotgan yoshlarning analitik tafakkur ko'nikmasi, tafakkur yuritish layoqati, tafakkuriy sifatlarni o'zlashtirish darajasi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon talablariga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi. Jumladan, ta'lim bosqichlarida adabiyot o'qitish jarayonida badiiy asarlar matnini quruq yodlatish yoki asar syujetini bayon etishni tahlil sifatida baholash, bir xil fikrlashga o'rgatish, adabiyot darslarining asosiy qismini nasihatgo'ylik, o'gitbozlik bilan o'tkazish kabi salbiy holatlarning davom etib kelinayotgani ko'zlangan pedagogik maqsadlarning to'la ro'yobga chiqmay qolishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, talabalarda badiiy asar tahlili kompetensiyasining bo'shligi ularning kelajak pedagogik faoliyati davrida o'quvchilarning ham badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatining zaif bo'lishiga olib kelmoqda.

Badiiy asarni tahlil qila bilish oliy filologik ta'limning asosini tashkil etishi kerak. Mustaqil fikrlash yo'li bilan idrok etilib, anglanmagan va tekshirilmagan badiiy asar ma'naviy ozuqa bermaydi. Talabalarga adabiy-nazariy bilim berishning o'zi etarli emas. Ularda ijodkorlik shakllantirilishi kerak. Adabiyot muallimi bir umr ijod mahsullari bilan ish ko'radi. Chinakam ijod mahsullari esa hamisha sirli, "kosa tagidagi nimkosasi" bilan qadrlidir. Ana shu nimkosalarni anglamoq va anglatmoq uchun filologlarda analitik tafakkur shakllangan bo'lishi lozim. Badiiy asarga analitik yondashuv talabaning badiiy tahlilga bo'lgan qiziqishini orttiradi, tadqiqot ishlariga ilhomlantiradi, unda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantiradi.

Adabiyot o'qituvchisi badiiy asarlarni tahlil etish yo'l-yo'rig'ini fanniy asoslarda o'rganmas ekan va har qanday janrdagi asarni tahlillay olish malakasiga ega bo'lgan holda o'quvchilar bilan yuzma-yuz bo'lmas ekan, adabiy ta'limdan kuzatilgan maqsad amalga oshmaydi. Adabiyot o'qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa "ijtimoiy nasihat"ligicha qolaveradi [1;72-b.]. Badiiy asar tahlili badiiy asarning imkon boricha barcha xususiyatlarini "kashf" etishga yo'naltirilgan, tadqiqot xarakteridagi hissiy-intellektual faoliyat hisoblanadi. Zamonaviy adabiy ta'lim badiiy asar tahliliga yangicha yondashuvlarni, yangicha analitik tafakkur munosabatlarini, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Badiiy matn ustida analitik tafakkur yuritilganida faqatgina badiiy haqiqatlarni kashf etish bilan cheklanilmaydi. Bu jarayonda tafakkur ufqlari yanada kengayadi, asarning yangi qirralari ochiladi. Adabiyotshunos prof. D.Quronov "Adabiy asar talqini estetik tamoyil sifatida" maqolasida badiiy asardan kelib chiqadigan ma'no muallif ko'zda tutganidan o'zgacha bo'lishi mumkinligini, bunga tabiiy deb qaramoq joiz ekanini, bu o'rinda faqat birgina talab talqin matndan o'sib chiqishi shart ekanini ta'kidlaydi [2; 49-b.].

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ham adabiyot o'qitish shaxsda erkin fikr va yuksak badiiy didni shakllantirishga qaratilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash erkin fikrlaydigan mutaxassis tomonidagina amalga oshirilishi mumkin. Ayni shu holat oliy filologik ta'lim tizimi oldiga bo'lajak filologlarni analitik fikrlaydigan yo'sinda shakllantirish vazifasini keskin qilib qo'yadi. Chunki adabiy ta'limning vazifasi o'rganilayotgan badiiy asarni o'z fikriga tayanib, erkin tahlil eta oladigan, asosli xulosalar chiqara biladigan shaxslarni shakllantirishdir.

Falsafa fanlari doktori Yu. Kurnosov o'zining "Azbuka analitiki" kitobida shunday yozadi: "Analitika mavjud bilimlarning sifatini yaxshilash, yangi bilimlarga ega bo'lish va maqbul

qarorlar qabul qilish uchun axborotni samarali ravishda qayta ishlashni talab qiladigan individual va jamoaviy intellektual faoliyatning metodologik, tashkiliy va texnologik qo'llab-quvvatlash tamoyillarining ajralmas kompleksidir. analitik tafakkur qobiliyatini shakllantirish har qanday ta'lim muassasasining eng muhim vazifasidir" [4; 7-b.].

Hozirgi kunda barcha bosqichlardagi ta'lim muassasalari faoliyati kompetentli mutaxassis tayyorlashga qaratilgan. Shu bois butun o'qish davri davomida filolog talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiya shakllantirish, ya'ni bo'lajak mutaxassisni nafaqat badiiy asar, balki, umuman, hayot hodisalari, odamlar va ular orasidagi munosabatlarga doir ma'lumotlarni tahlil etish va mantiqqa muvofiq qaror qabul qilishga o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Yurtimizdagi barcha oliy o'quv yurtlarida bunga muayyan ijtimoiy, psixologik, texnologik va pedagogik sharoit mavjud. Ijtimoiy sharoit borligi shundaki, jamiyatning ma'naviy-madaniy va iqtisodiy taraqqiyoti tezlashdi, odamning kasbiy va shaxsiy-ijodiy imkoniyatlari ortdi. Jamiyat a'zolarining umumiy intellektual saviyasi, bilimdonligi, ishga ijodiy yondashuv yo'sini bir qadar yuksalgani bo'lajak mutaxassisni analitik tafakkur qilishga yo'naltirishning psixologik sharoit borligini ko'rsatadi.

Bo'lajak mutaxassislarda olam hodisalari va odamlararo munosabatlarga kasbiy va ilmiy nuqtai nazardan analitik yondasha bilish ko'nikmasini tarkib toptirish har bir oliy o'quv yurtining ilmiy mavqeiga bog'liqdir. Bugungi oliy adabiy ta'lim oldida ikki yirik maqsad turadi. Birinchisi – bo'lajak filologlarda kasbiy gumanistik dunyoqarash va mutaxassisligiga monand odamiylik yondashuvini qaror toptirish, ya'ni ularda komil insonga xos bo'lgan ma'naviy sifatlarni rivojlantirish. Ikkinchi maqsad esa – filologlarga kasbiy kompetensiyalar va faoliyatining texnologik asoslarini o'rgatish. O'zida yuqori darajada analitik tafakkur tarkib toptirmagan filolog samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Chunki analitik tafakkurgina filolog mutaxassisga ham shaxs, ham kasb egasi sifatida o'zgalarga ta'sir ko'rsata olish, o'z dunyoqarashini boshqalarga tushunarli tarzda etkaza bilish imkonini beradi. Analitik tafakkur egasi o'z ustida tinimsiz ishlaydi, o'z bilimlarini to'xtovsiz ravishda boyitib boradi. Zero, analitik tafakkurning tabiati shuni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yoz.diss. – T.: 1996. – 238 b.
2. Quronov D. Adabiy asar talqini estetik tamoyil sifatida. O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari mavzusidagi konferensiya materiallari. – T.: Mumtoz so'z, 2014. – 49 b.
3. Falsafa. Qomusiy lug'at. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, – T.: Sharq, 2004. – 390 b.
4. Курносков Ю.В. Алфавит анализа. – Москва, РУСАКИ, 2013. – 7 с.

